MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARI QORAQALPOQ TILIDA

Yeshboyeva Matluba Baxodir qizi,
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti
matlubaeshbaeva@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20249537

Annotatsiya. *Badiiy adabiyotning bir qismi deya tarjima ilmini aytish mumkin. Bugungi kunda tarjimonlar ham, tarjima ishlari ham anchagina ko'payib bormoqda. Ba'zi bir tarjima ishlarini mutolaa qilish jarayonida uning asliyat bilan bir xil ekanligi, kitobxonga olam-olam zavq-u shavq beradi. Ammo ayrim tarjimalarda ba'zi kamchiliklar ham kuzatiladi. Ushbu maqolada Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalaridagi kamchiliklar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, tarjimon, asliyat, qardosh tillar, qardosh xalqlar, tarjima qilish, tahlil qilish.*

Аннотация. *Науку перевода можно считать частью литературной литературы. Сегодня количество переводчиков и объем переводческих работ значительно растут. В процессе чтения некоторых переводов тот факт, что они идентичны оригиналу, доставляет читателю большое удовольствие и вызывает восторг. Однако некоторые переводы также имеют недостатки. В данной статье анализируются недостатки переводов Мухаммада Юсуфа на каракалпакский язык.*

Ключевые слова: *перевод, переводчик, оригинальность, родственные языки, родственные народы, перевод, анализ.*

Annotation. *The science of translation can be said to be a part of literary literature. Today, both translators and translation works are increasing significantly. In the process of reading some translations, the fact that they are identical to the original gives the reader a lot of pleasure and excitement. However, some translations also have some shortcomings. This article analyzes the shortcomings of Muhammad Yusuf's translations into the Karakalpak language.*

Keywords: *translation, translator, originality, sister languages, sister peoples, translation, analysis.*

Kirish. Badiiy adabiyotda tarjimaning o'rni juda ham muhim. Tarjima ilmi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Vaqt o'tgani sari tarjima qilingan asarlar ham, tarjimaga qo'yilgan talablar ham ortib boraveradi. Tarjima haqida shu kungacha ko'pgina ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tarjimaning qanday, qay holda qilinishi lozimligi ilmiy jihatdan ko'rsatib berilgan. Chunki xalqlar o'rtasidagi ma'naviy ko'prik bu – tarjimadir. Xoh bu xalq chet ellar bo'lsin, xoh bu qardosh ellar. Ularning bir-biridan ma'naviy oziq olishida tarjima ishlari juda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarjimashunoslik haqida gap ketar ekan, o'zbek adabiyotida tarjimashunos olim G'aybulla Salomovning tarjima nazariyasi va amaliyotiga bog'liq ilmiy faoliyatini alohida ta'kidlamoq zarur. U o'zining asarlarida tarjima ishlari qanday qilinishi lozimligini ta'kidlab, misollar bilan tahlil qilib ko'rsatib bergan. "Til va tarjima", N.Komilov bilan hammualliflikda "Do'stlik ko'priklari", "Tarjima tashvishlari", "Rus tilidan o'zbekchaga maqol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doir" kabi asarlar shular jumlasidandir. Bu kabi tarjimaga oid ko'pgina

asarlarda, ilmiy ishlarda o‘zbek tilidan chet tillariga qilingan tarjimalar tahlil qilingan. She’riy tarjimada yaqin tillardan qilingan tarjimalar haqida tarjima qonuniyatlari va tarjima tamoyillari yetarli darajada emas. Sh bois yaqin tillardan qilingan tarjimalarda bir qancha kamchiliklar yuzaga kelgan. “Qardosh tillarda bitilgan she’riy asarlarning juda katta qismi shunday xususiyatga egaki, ularning matnidagi so‘zlarning qariyb barchasi ikkinchi tilda ham uchraydi va shunga ko‘ra tarjima tilida mavjud bo‘lmagan ayrim so‘zlarni almashtirish yo‘li bilan ag‘darish orqali adekvatlikka erishish mumkin. biroq bu “almashtirish” mexanik yumush bo‘lmay, aksincha, ko‘pgina hollarda mutarjimni san’atkor sifatida saralaydigan og‘ir ijodiy izlanishdir”. [1] Qardosh tillardan tarjima qilish murakkab bo‘lganligi sababli tarjimada xato va kamchiliklar uchraydi. Chunki aynan qardosh tillarda mavjud bo‘lgan so‘zlar har xil semalarni anglatishi mumkin. Leksemalar bir-biridan shakl jihatidan farq qilmasligi mumkin, ammo semalari boshqacha bo‘ladi. Shuning uchun tarjimon puxta bilimini ishga solishi lozim.

Taqdiqot metodologiyasi. Maqolada Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjimalari asl nusxa bilan qiyoslanadi. Undagi yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida noto‘g‘ri tarjima qilinganligi dalillanadi.

Tahlillar va natijalar. Muhammad Yusufning qoraqalpoq tiliga qilingan tarjima asarlari ichida tarjimon ba'zi xatoliklarga yo‘l qo‘ygan. Birgina so‘zni noto‘g‘ri qo‘llash orqali she’rdagi ma’no, mazmun o‘zgargan o‘rinlar mavjud. Masalan, “Onamga xat” she’rida:

Men sizni o‘ylayman **shom-u saharda**,
Ona, sog‘insam ham bora olmayman [2]

Tarjimada:

Men sizdi oylayman **erte sáhárde**
Barıp mawqımdı bir basa almayman [4]

Shoir asliyatda onasini shom-u saharda ya’ni erta-yu kech o‘ylashini ifodalagan, ammo tarjimon buni faqat tong mahal deya o‘girgan, shu sababli g‘alizlik yuzaga kelgan. Tarjimani o‘qigan kitobxon onasini faqat erta tongda o‘ylaydi deya tushunib qoladi. Bundan tashqari “Bayramdir har kuning...” she’rida ham quyidagicha misralar mavjud:

Bayramdir har kuning, **nobakor**,
Davlating bor – senda **zulm** yo‘q. (Saylanma, 67)

Asl nusxadagi nobakor so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘ati(Keyingi o‘rinlarda O‘TIL)da “1. Xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakati yomon odam. *Bilasizki, chiqib Niyoz bachchag‘ar, Atrofiga yig‘ildi qulbachchalar. U nobakor ozor berar tinch xalqqa, Kirdikori nuqul zarar tinch xalqqa!* I. Sulton, Noma’lum kishi. 2 Yaramas, ablah, razil” deya izohlanadi. [6] Ikkinchi misrasida esa shoir davlating, ya’ni yurting bor, unda

osoyishtalik mavjud, senga zulm qiladigan hech kim yo‘q demoqchi. Ammo tarjimon buni noto‘g‘ri anglagan ko‘rinadi:

Hár kúniń bayramǵa bara bar,
Mal dúnyań bar – sende **árman** joq (Qo‘lyozma nusxa, 27)

Mutarjim asliyatdagi nobakor so‘zini tushirib qoldirgan va “zulm” so‘zini “árman” deb o‘girgan. Vaholanki, zulm so‘zining O‘TIL dagi izohi quyidagicha: “1. Hukmdor va hokimlarning fuqaroga, zolimlarning mazlumlarga ko‘rsatgan jabri; shafqatsizlik, istibdod. Zulm zindondan yomon. Maqol. 2. Umuman, jabr-sitam, ezish; adolatsizlik”. [5] Tarjimada qo‘llangan árman so‘ziga Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi(Keyingi o‘rinlarda QTTS)da quyidagicha izoh berilgan: “1.Máqset, keleshek, niyet, adam kewlindegi isleyjaq isi. 2.Qayǵı, hásiret, baxıtsızlıq, kemtarlıq”. [3] Bundan kelib chiqadiki, tarjimaning mazmunida o‘zgarish mavjud. Tarjimalarni tahlil qilish davomida yana bir qancha xatoliklarni uchratdik, jumladan, “Xirmondagi bola” she’rida:

Navoiy satriga termulib yurib
Tuydim jamolini bu ko‘hna elim (Saylanma, 138)

Tarjimada:

Nawayı qatarlarına telmirip júrip
Toydım jamalına góne jurtımnıń (Qo‘lyozma nusxa, 48)

Asliyatda ishlatilgan tuymoq so‘zi “His qilmoq, sezmoq; payqamoq” ma’nosini anglatadi. Tarjimada bu so‘z to‘ymoq so‘zi bilan berilgan bo‘lib, bu so‘z QTTS da “Awqatqa yaki birer nársege qarnı toyıw” deb izohlangan. Asliyatda shoir yurtining jamolini his qilganligini aytsa, tarjimon yurtining jamoliga to‘yganligini aytmoqda. Bir so‘z orqali tarjimaga putur yetish holati kuzatildi. Bu kabi holatni boshqa she’rda ham kuzatamiz, “Ertak” she’rida:

Hayot, azizim, sen xafa qilmagin,
Mening **shiringina** qizlarimni ham (Saylanma, 193)

Tarjimada:

Meniń **shıraysızlaw** qızlarımdı da
Ómir, ázizim, sen qapa etpegil (Qo‘lyozma nusxa, 56)

Asliyatda qo‘llangan shirin so‘zi O‘TIL da izohlangan quyidagi ma’noda ishlatilgan: “3 *ko‘chma* Kishi huzur qiladigan, orom oladigan, xush yoqadigan; yoqimli, yoqimtoy”. Tarjimada esa bu so‘zga -siz sifat yasovchi affiksini qo‘shgan bo‘lib, mavjud emaslik ma’nosida ishlatgan, ya’ni shoirning “shiringina” qizlarini “chiroysizroq”qa aylantirib qo‘ygan. Muhammad Yusufning mashhur she’rlaridan biri bo‘lmish “Mehr qolur” she’rining qoraqalpoqcha tarjimasida ham xatolikka yo‘l qo‘yilgan:

Nima deysan, ey **g‘ayur** inson?
G‘iybatlaring qildi meni qon (Saylanma, 13)

Ne deyseń, áy **tákabbir** insan?
Ǵıybatlarıń etti meni qan (Qo‘lyozma nusxa, 35)

Asl nusxadagi g‘ayur so‘zini biz O‘TIL dan “Rashkchi, jonkuyar, fidoyi; g‘ayratli, tirishqoq” kabi ma’nolarni anglatishini bilishimiz mumkin. QTTS da tákabbir so‘zi “Menmen, ór kókirek” deb ifodalangan. Demak, tarjimonning bu o‘rindagi xatoligi ham o‘z isbotini topdi.

Bundan tashqari shoirning ba’zi she’rlarining sarlavhalari ham xato o‘girilgan o‘rinlar ham uchraydi. **“Xudbinga”** she’rini tarjimon **“Menmenge”** deya tarjima qilgan. O‘TIL da xudbin so‘zi “O‘zini yoki o‘z manfaatini hammadan ustun qo‘yuvchi” ma’nosini anglatadi, QTTS da esa menmen so‘zi “Tákabbir, ózimshil adam” deya izohlangan. Bu so‘z o‘zbek tilidagi manman so‘ziga to‘g‘ri keladi. Xudbin va manman so‘zlari sinonim bo‘lmaganligi sababli noto‘g‘ri tarjima qilgan deyish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tarjimon tarjima ishiga qo‘l urishdan avval tarjima tilini puxta o‘zlashtirib olishi zarur. Aks holda yuqoridagi kabi qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yishi tayin. Tarjima ishi oddiy bir ish emaski, uni istagan inson bajarib ketaversa. Bu bilan biz tarjimonni butunlay qoralamoqchi emasmiz, tarjima ishlari faqat kamchiliklardan iborat deyishdan yiroqmiz. Ammo bu fikrimiz keyingi tarjimonlarga tavsiya bo‘la oladi degan umiddamiz. Bu kabi tarjimalar qayta tarjima qilishni talab qiladi. Zero, to‘g‘ri tarjima orqali xalqlar do‘stligi mustahkamlanib, kitobxonlar qalbi yanada shod bo‘lib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Исомиддинов З. «Алдоқчи сўзлар» билан баҳс. – Таржима санъати (Мақолалар тўплами) 5-к. – Т.:Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – С.173.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – T.:2019. – S.57.
3. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi, I. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2023. – S.282.
4. Seytayev Bazarbayning qilgan tarjimalarining qo‘lyozma nusxasi. – S.5.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, II. – T.:O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – S.163.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, III. – T.: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – S.45.